



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 3-fevral

VII-6-25-6-0-K/25

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi 781-son qaroriga asosan Pop tumani O'zbekiston va Xudoyberganov massivlari xududlaridan "Namangan" erkin iqtisodiy zonasiga temir yo'l va gaz quvuri qurilishini olib borish uchun, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Pop tuman hokimligining Pop tumani O'zbekiston va Xudoyberganov massivlari xududlaridan "Namangan" erkin iqtisodiy zonasiga temir yo'l va gaz quvuri qurilishini olib borish uchun, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusi ma'qullansin.

2. Pop tumani O'zbekiston va Xudoyberganov massivlari xududlaridan "Namangan" erkin iqtisodiy zonasiga temir yo'l va gaz quvuri qurilishini olib borish uchun, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha 2 ta Bog'dochilik yer maydoni jami 2 ta huquq egalari bilan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida ochiq muhokama o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Pop tuman hokimi (A.Sultanov)ga:

- tumandagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarni to'liq o'rgangan xolda ochiq muloqotda har birini ishtirokini ta'minlash;

- ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalar asosida tuman bayonnomasini tuzish;

- bayonnomaga ochiq muxokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarning (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash;

- ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnoma Xalq deputatlari viloyat kengashiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Pop tuman hokimliklariga yuborilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari I.Raxmatov ushbu qaror viloyat va Pop tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to'liq hajmda e'lon qilinishini ta'minlasin.

6. Qarorining ijrosini ta'minlash Pop tuman hokimi A.Sultonovga zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash viloyat hokimining o'rinbosari (A.Xakimov)ga, nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Qodirov)ga zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



MUMINOV SOLIJON
DJALILOVICH